

ONA TILI DARSLARIDA JURNALISTIK MATERIALLARDAN  
FOYDALANISHNING AMALIYORDAGI TATBIQI

**Iskandarova Noila Muxtor qizi**<sup>11</sup>

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ona tili darslarida jurnalistik materiallardan foydalanish masalasiga to'xtaldi. Shuningdek, bugungi kunda nafaqat ona tili ta'limida jurnalistik materiallardan foydalanish masalasi nazariy jihatdan asoslab berilganligi, balki uning amaliyotdagi tatbiqi turli darajada amalga oshirilyotgani haqida churuq tahlili ham o'z ifodasini topdi.*

*Maqolada bo'lajak ona tili fani o'qituvchilarining ona tili darslarida jurnalistik materiallardan foydalanish mazmunini atroflicha yoritib berish maqsad qilindi va tahliliy munosabat bildirildi.*

**Kalit so'zlar:** *jurnalistik materiallar, jurnalistik materiallardan foydalanish, kommunikativ-kognitiv va kommunikativ-pragmatik metodlar, lingvistik, psixolingvistik, metodik tamoyillar.*

**Annotation:** *This article focuses on the issue of using jurnaistic materials in native language lessons. It also shows that today not only is the issue of using jurnaistic materials in native language education theoretically justified, but its practical implementation is being carried out to varying degress.*

*The article aims to comprehensively cover the content of the use of jurnaistic materials in native language lessons by future native language teachers and provides an analytical approach.*

**Keywords:** *jurnaistic materials, use of jurnaistic materials, communicative-cognitive and cognitive-pragmatic methods, linguistic, psycholinguistic, methodological principles.*

Bugungi kunda ona tili ta'limida jurnalistik materiallardan foydalanish masalasi nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lsa-da, uning amaliyotdagi tatbiqi turli darajada amalga oshirilmoqda. Maktab va akademik litseylar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jurnalistik materiallar ko'proq o'qituvchilarning shaxsiy tashabbusi va metodik tajribasiga bog'liq holda qo'llanilmoqda. Xususan, til o'qitishning an'anaviy, ya'ni faqat grammatik qoidalarni yodlatishga yo'naltirilgan metodikasidan voz kechilib, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu jarayonda jurnalistik materiallar o'quvchi nutqini boyitish va ularni ijtimoiy muhitga moslashtirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>11</sup> Iskandarova Noila Muxtor qizi Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 2-kurs magistranti. [noila.skandarova@gmail.com](mailto:noila.skandarova@gmail.com)

Jurnalistik nutq, asosan, publitsistik uslubga mansub bo'lsa-da, u ko'pincha funksional uslublar chorrahasi vazifasini o'taydi. Unda rasmiy uslubning aniqligi va faktologik asosi, ilmiy uslubning mantiqiy izchilligi hamda badiiy uslubning tasviriyliги uyg'unlashgan bo'ladi<sup>12</sup>. Masalan, tahliliy maqolada statistik ma'lumotlar (rasmiy-idora uslubi) bilan bir qatorda, muallifning hissiy munosabatini ifodalovchi metaforalar (badiiy uslub) ham qo'llaniladi. Bu xususiyat o'quvchilarga til birliklarining turli uslubiy vaziyatlarda qay darajada o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Jurnalistik matnlar tildagi eng dinamik qatlam hisoblanadi. Unda ijtimoiy-siyosiy leksika, xalqaro terminlar va yangi paydo bo'lgan neologizmlar birinchi bo'lib aks etadi. Bugungi kunda media makonida "raqamli iqtisodiyot", "sun'iy intellect", "media-savodxonlik" kabi tushunchalarning faol qo'llanilishi jurnalistikaning yangilikka o'ta ta'sirchanligini ko'rsatadi<sup>13</sup>. Shuningdek, publitsistikada barqaror birikmalar va frazeologizmlarning o'ziga xos transformatsiyasi (qayta ishlanishi) kuzatiladi, bu esa nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Jurnalistik nutqning sintaksisi adresatga (tinglovchi yoki o'quvchiga) maksimal darajada ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan. Unda aniq va lo'nda ifodalangan sodda gaplar bilan bir qatorda, voqea-hodisaning murakkab bog'lanishini ifodalovchi qo'shma gaplar ham faol ishlatiladi. Ayniqsa, ritorik so'roqlar, undov gaplar va jummalarning inversiya (so'z tartibining o'zgarishi) qilinishi o'quvchi e'tiborini jalb qilishning asosiy lingvistik vositasidir<sup>14</sup>.

Jurnalistik nutq sintaksisining o'ziga xos xususiyatlari: a) ta'sirchanlik (ekspressivlik): Matn his-tuyg'ularga ta'sir qilish va qiziqish uyg'otishga qaratilgan. b) lo'ndalik va aniqlik: Axborotni tez va tushunarli yetkazish uchun sodda gaplardan foydalaniladi. d) mantiqiylik: Voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini ko'rsatish uchun murakkab qo'shma gaplar qo'llaniladi. e) inversiya (so'z tartibining o'zgarishi): E'tiborni muhim axborotga qaratish uchun gap bo'laklari odatiy tartibdan tashqarida joylashtiriladi. f) ritorik so'roq va undovlar: Adresatni o'ylashga majbur qilish va hissiy muhit yaratish uchun ishlatiladi. Bu sintaktik usullar orqali jurnalistik matnlar axborot uzatish bilan birga, tinglovchi yoki o'quvchida muayyan munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, sintaktik qurilmalarni dars jarayonida o'rganish o'quvchilarning nutqiy mahoratini oshirishga yordam beradi.

Jurnalistik matnning eng muhim lisoniy qonuniyati – bu axborotni uzatishdagi standart (aniqlik) va ekspressiv (hissiy bo'yoq) muvozanatidir. Tilshunos olim V.G.Kostomarov ta'kidlaganidek, jurnalistika tili qat'iy qoliplar (standart) va yangi, kutilmagan ifoda vositalari (ekspressiya) kurashidan iborat<sup>15</sup>. Bu muvozanat o'quvchiga axborotni ham mantiqan, ham hissiy jihatdan qabul qilishga imkon beradi.

<sup>12</sup> Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 84.

<sup>13</sup> Mahmudov N. Tilning ijtimoiy tabiati. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 112.

<sup>14</sup> Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – B. 245.

<sup>15</sup> Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. – Москва: МГУ, 1971. – С. 154.

1.1-jadval

<b>Standart va ekspressiya muvozanati jadvali</b>		
<b>Xususiyat</b>	Standart (Intellektuallik)	Ekspressiya (Hissiylik)
<b>Maqsad</b>	Ma'lumot berish	Ta'sir o'tkazish
<b>Janrlar</b>	Xabar, hisobot, intervyu	Feleton, ocherk, esse, reportaj
<b>Amaliy tahlil: Nashrlar uslubidagi farq</b>		
<b>Nashr yo'nalishi</b>	Standart darajasi	Ekspressiya darajasi
<b>Rasmiy xabarlar (O'ZA)</b>	Juda yuqori. Ma'lumotlar qat'iy, his-tuyg'usiz yetkaziladi	Minimal: Faqat rasmiy sifatlashlar qo'llaniladi.
<b>Kun.uz (Ommabop)</b>	O'rta. Faktlar tezkor beriladi.	Yuqori. Sarlavhalarda va tahliliy maqolalarda o'quvchini jalb qilish uchun o'tkir so'zlardan foydalaniladi.
<b>Gazeta.uz (Analitik)</b>	Yuqori. Raqamlar va faktlar muhim	O'rta. Metaforalardan ko'ra ko'proq urg'u va kinoyadan foydalaniladi.

Shuni aytish mumkinki, jurnalistik matnlarning dinamikligi va adresatga yo'naltirilganligi ona tili darslarida "hayotiy til" muhitini yaratadi. Ushbu materiallar o'quvchilarda nafaqat grammatik bilimni, balki nutqiy vaziyatga qarab so'z tanlash (pragmatik kompetensiya) ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim standartlarida belgilangan kommunikativ maqsadlarga to'la mos keladi. Amaliyotda jurnalistik materiallardan foydalanishning eng keng tarqalgan shakllari sifatida gazeta va jurnal maqolalari asosida matn tahlili, intervyu va reportajlardan foydalanib munozara tashkil etish, axborot janrlaridan yozma nutqni rivojlantirishda foydalanish holatlari kuzatiladi. Biroq bu jarayon ko'pincha tizimli xarakter kasb etmay, epizodik tarzda olib borilmoqda<sup>16</sup>. Ona tili darsliklari va o'quv qo'llanmalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, jurnalistik materiallar ko'proq publitsistik uslub mavzularini yoritishda misol sifatida beriladi. Ammo ular asosida maxsus mashqlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan<sup>17</sup>. Natijada o'quvchilar matnni faqat o'qib tushunish bilan cheklanib, uning lingvistik va kommunikativ imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydilar.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar jurnalistik materiallarni ko'pincha: a) darsning motivatsion bosqichida; b) yangi mavzuni tushuntirishda qo'shimcha misol sifatida<sup>18</sup>; d) bahs-munozara tashkil etish vositasi sifatida qo'llaydilar. Biroq ularni nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks metodik vosita sifatida qo'llash holatlari kam uchraydi<sup>19</sup>.

<sup>16</sup> Jalolov J. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fan dasturlari. – Toshkent, 2021.

<sup>18</sup> Safarov Sh. Matn va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2016.

<sup>19</sup> Ismailova N. Til ta'limida zamonaviy metodlar. – Toshkent, 2019.

Shuningdek, amaliyotda jurnalistik materiallardan foydalanishda bir qator muammolar aniqlanadi. Jumladan, ayrim jurnalistik matnlarning mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmasligi, terminologik murakkablik, murakkab sintaktik qurilmalar mavjudligi dars samaradorligini pasaytiradi. Bu esa matnni oldindan didaktik moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning aksariyatida jurnalistik materiallar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar yetarli emas, natijada matnlar faqat mazmuniy jihatdan tahlil qilinib, til birliklarini o'rganish imkoniyati to'liq ishga solinmaydi. Tadqiqotlardan ma'lumki, jurnalistik materiallar asosida maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi<sup>20</sup>. Amaliyotdagi kuzatishlar jurnalistik materiallardan foydalanishda darsning interaktiv shakllari – bahs, munozara, "savol-javob", rolli o'yinlar – yetarli darajada qo'llanilmayotganini ko'rsatadi. Holbuki, aynan ushbu shakllar jurnalistik matnlarning kommunikativ imkoniyatlarini to'liq ochib beradi<sup>21</sup>. Aytish mumkinki, ona tili darslarida jurnalistik materiallardan foydalanish amaliyotda mavjud bo'lsa-da, u tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Ushbu holat jurnalistik materiallardan foydalanishni pedagogik muammo sifatida o'rganish zaruratini yanada dolzarb qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori<sup>22</sup> bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti (DTS) da ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar, ularning mazmuni va ta'lim natijalari aniq ifodalangan. Mazkur standartda ta'lim jarayonining natijaviyligi, ya'ni o'quvchining egallashi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalari asosiy o'ringa qo'yilgan. Bu esa dissertatsiyada ilgari surilgan jurnalistik materiallardan foydalanishning amaliyotdagi holati va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish g'oyasi bilan bevosita uyg'unlashadi.

DTS da belgilanganidek, ona tili ta'limi o'quvchilarda funksional savodxonlikni, ya'ni og'zaki va yozma nutqda til birliklaridan to'g'ri foydalanish, muloqotga kirishish, axborotni tahlil qilish, fikrni mantiqiy asoslash, mustaqil qaror qabul qilish, matn bilan ishlash kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu esa til o'zlashtirish jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, DTS talablarida nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi yetarli emasligi, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish muhimligi ta'kidlangan. Boshqacha aytganda, DTS da belgilangan nutqiy, ijtimoiy-madaniy, axborot-kommunikativ, shaxsiy va fuqarolik kompetensiyalari o'quvchining tilni egallashidagi ikki bosqichli jarayonni – avval til haqidagi nazariy bilimlarni o'rganish, so'ngra esa bu bilimlarni nutqiy faoliyatda qo'llay olish bosqichlarini izchil amalga oshirishni talab qiladi. Dissertatsiyada taklif etilayotgan metodika ham o'quvchi avval tushunchalarni ongli ravishda egallashi, keyin esa uni amaliy mashg'ulotlar orqali real

<sup>20</sup> Passov E.I. Kommunikativ yondashuv asoslari. – Moskva, 2010.

<sup>21</sup> Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge, 2015.

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. – Toshkent, 2017. – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/316084325>

hayotiy kontekstda mustahkamlashi zarurligini asoslab beradi. DTSda 5–9-sinflar uchun belgilanadigan ta'lim mazmuni, metodik yondashuvlar va baholash mezonlari o'quvchi faoliyatini faollashtiruvchi, izlanishga undovchi, muloqotga tayyorlovchi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozimligi qayd etilgan. Ushbu yondashuv aynan til o'zlashtirish jarayonini sifatli tashkil etishning zamonaviy metodik asoslarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish ilmiy -metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan Milliy o'quv dasturi<sup>23</sup> umumiy o'rta ta'limning mazmunini tubdan yangilashga, o'quvchining hayotiy faoliyatga tayyor garligini ta'minlovchi kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Dasturda fanning nazariy asoslarini o'rganish bilan birga, ularni amaliyotda qo'llay olish muhimligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Milliy o'quv dasturida ona tili fanidan o'quvchilar quyidagi asosiy kompetensiyalarni egallashi lozim: fikrni og'zaki va yozma shaklda ifodalash, muloqotga kirishish, matn yaratish, uni tahlil qilish, til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, axborotni izlash, saralash, baholash va undan foydalanish. Ushbu kompetensiyalar, avvalo, tilni ongli ravishda o'rganishni, so'ngra esa bu bilimlarni nutqiy faoliyatda to'laqonli qo'llay olishni talab qiladi. Bu esa dissertatsiyaviy tadqiqot doirasida ilgari surilayotgan jurnalistik materiallardan foydalanishning amalda tatbiq etish zarurligini tasdiqlaydi. Milliy o'quv dasturining muhim jihatlaridan biri – matn asosidagi yondashuvdir. Unda til birliklarini matn asosida o'rgatish, til vositalarining kontekstda qo'llanilishini anglash, matnni yaratish, tahrirlash, qayta ishlash kabi faoliyatlar orqali o'quvchining amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga alohida urg'u berilgan. Aynan shu nuqta dissertatsiya mavzusida jurnalistik materiallardan foydalanish jarayonini tashkil etishda matn bilan ishlash usullarining ustunligi haqidagi g'oyani qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining yangi Milliy o'quv dasturi ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning nutqiy faoliyat turlarini (tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish) muvozanatli rivojlantirishni talab etadi. Dasturda matn tahlili markaziy o'ringa ko'tarilgan bo'lib, o'quvchilardan nafaqat badiiy, balki ommabop va jurnalistik matnlarni ham tahlil qilish, ulardagi axborotni saralash ko'nikmasini shakllantirish talab etiladi. Xususan, dastur talablariga ko'ra, o'quvchi "turli manbalardan olingan materiallarni tahlil qilish, fakt va munosabatni ajratish, axborotning ishonchliligini baholash" kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim<sup>24</sup>. Zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitish metodikasini transformatsiya qilish, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga kiritilayotgan o'zgarishlar grammatik qoidalarni mexanik yod olishdan (formal yondashuv), ularni nutqiy vaziyatlarda qo'llashga (funksional yondashuv) o'tishni ko'zda tutadi. Yangi pedagogik

<sup>23</sup>O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim mazmunini belgilovchi Milliy o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi. – Toshkent, 2020. – Elektron manba: <https://uzedu.uz/national-curriculum.pdf.29>

<sup>24</sup>O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fanidan Milliy o'quv dasturi. – Toshkent, 2021. – B.18-22.

strategiyaga ko'ra, grammatika endi o'rganishning pirovard maqsadi emas, balki axborotni to'g'ri qabul qilish va uzatish vositasi sifatida talqin etilmoqda. Nazariy qoidalarning soddalashtirilishi o'quvchi diqqatini til birliklarining sintaktik va semantik imkoniyatlarini matn tarkibida tahlil qilishga yo'naltiradi. Bu esa lingvistik bilimlarning amaliy ko'nikmalarga aylanish jarayonini (interiorizatsiya) tezlashtiradi.

Yangi o'quv dasturlarida matnlarning qamrovi sezilarli darajada kengaygan. Ilgari darsliklar didaktik asosi faqat badiiy uslub namunalaridan tarkib topgan bo'lsa, hozirgi bosqichda ijtimoiy hayotning turli jabhalarini (iqtisodiyot, texnologiya, tibbiyot, huquq, tadbirkorlik) aks ettiruvchi ilmiy-ommabop matnlar yetakchi o'ringa chiqmoqda. Bunday yondashuv o'quvchida:

- sohaviy terminologik tizimni (vocabulary acquisition) shakllantiradi;
- axborotni tanqidiy idrok etish va muammoli vaziyatlarda argumentli yechim taklif qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Ona tili darslarida fanlararo bog'liqlikning ta'minlanishi (masalan, "Tarbiya" fani bilan uyg'unlik) til o'rganishning pragmatik jihatlarini ochib beradi. Agar boshqa ijtimoiy fanlar muayyan axloqiy yoki huquqiy normalarni (mazmunni) o'rgatsa, "Ona tili" fani ushbu mazmunni muloqot jarayonida shakllantirishning lingvistik vositalarini (shakl, ohang, etiket birliklari) taqdim etadi. Darslik majmualariga audio komponentlarning kiritilishi ta'lim oluvchilarning tinglab tushunish (listening) ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish imkonini beradi. Bu o'quvchilarda nafaqat yozma, balki og'zaki ilmiy nutqni tahlil qilish, so'zlovchi niyatini (intensiya) anglash va axborot oqimidan muhim tayanch tushunchalarni ajratib olish qobiliyatini yuksaltiradi. Shuningdek, ona tili ta'limining yangilangan mazmuni o'quvchini tor doiradagi tilshunos sifatida emas, balki zamonaviy axborotlashgan jamiyatda raqobatbardosh, turli sohalarda muloqotga kirisha oladigan kompetentli shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining yakuniy bosqichi hisoblangan 11-sinf "Ona tili" darsligi o'quvchilarni oliy ta'lim va mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlashning strategik vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Avvalgi 11-sinf darsliklarida grammatik takrorlashlar ustunlik qilgan bo'lsa, yangi avlod darsligida o'quvchining akademik faoliyati uchun zarur bo'lgan annotatsiya, tezis, taqriz va referat yozish kabi murakkab ko'nikmalar tizimli ravishda berilgan<sup>25</sup>. Bu jarayon o'quvchini nafaqat til o'rganuvchi, balki bo'lajak tadqiqotchi sifatida shakllantiradi. 11-sinf darsligida matn tahlili yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan. Unda til birliklari orqali muallifning yashirin maqsadini (subtekst) aniqlash, axborotning ishonchliligini tekshirish (fact-checking) va manipulyativ mazmundagi matnlarni tahlil qilishga alohida urg'u berilgan<sup>26</sup>. Bu esa zamonaviy media-makon sharoitida o'quvchida axborot immunitetini hosil qiladi. Darslikning "Rasmiy-ish uslubi" bo'limi

<sup>25</sup>Yusupova Sh. Ona tili o'qitish metodikasi: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2023. – 84-bet.

<sup>26</sup>Hamroyev G'. Ona tili ta'limida darsliklarning yangi avlodi: konseptual asoslar // Til va adabiyot ta'limi jumali. – Toshkent, 2023. – №4. – 12-bet.

o'quvchini mehnat bozoriga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, unda rezyume (CV), motivatsion xat, rasmiy xatlar va biznes loyihalar tayyorlash amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi<sup>27</sup>. Bu, o'z navbatida, tilning ijtimoiy hayotdagi instrumental ahamiyatini oshiradi. Zamonaviy darslik tarkibiga kiritilgan audio materiallar o'quvchilarda nafaqat tinglab tushunish, balki notiqlik san'ati va muzokara olib borish madaniyatini ham shakllantiradi. Bu o'quvchining og'zaki nutqidagi fonetik va prosodik (ohang, urg'u) xatoliklarni bartaraf etishda muhim pedagogik vositadir<sup>28</sup>. Shuningdek, 11-sinf "Ona tili" darsligi til o'rganish jarayonini hayotiy ehtiyojlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etgan. Bu esa bitiruvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali muloqotga kirisha olishi va o'z fikrini akademik darajada bayon eta olishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Demak, til ta'limida jurnalistik materiallardan foydalanish murakkab pedagogik muammo sifatida matnlarni didaktik moslashtirish, o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga muvofiq saralash hamda ularni tahlil qilishning metodik tizimini yaratishni taqozo etadi. Bunday materiallar bilan tizimli ishlash o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish bilan bir qatorda, ularda axborotni saralash, muallif pozitsiyasini aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish kabi tanqidiy tafakkur hamda media-savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Ona tili darsliklari va Milliy o'quv dasturi tahlili shuni ko'rsatadiki, jurnalistik materiallar ta'lim mazmuniga "hayotiy til" muhitini olib kiruvchi, o'quvchilarda standart (aniqlik) va ekspressiya (hissiy bo'yoq) muvozanatini tushunishga xizmat qiluvchi muhim instrumental vositadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 84.
2. Mahmudov N. Tilning ijtimoiy tabiati. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 112.
3. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – B. 245.
4. Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. – Москва: МГУ, 1971. – С. 154.
5. Jalolov J. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fan dasturlari. – Toshkent, 2021.
7. Safarov Sh. Matn va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2016
8. Ismailova N. Til ta'limida zamonaviy metodlar. – Toshkent, 2019.
9. Passov E.I. Kommunikativ yondashuv asoslari. – Moskva, 2010.

<sup>27</sup>O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limining Milliy o'quv dasturi. – Toshkent, 2021.

<sup>28</sup>Mahmudov N. Til o'qitishning zamonaviy metodikasi va darslik muammosi // O'zbek tili va adabiyoti ta'limi. – Toshkent, 2024. – №2.

10. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge, 2015.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. – Toshkent, 2017. – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/316084325>
12. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim mazmunini belgilovchi Milliy o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi. – Toshkent, 2020. – Elektron manba: <https://uzedu.uz/national-curriculum.pdf.29>
13. Yusupova Sh. Ona tili o'qitish metodikasi: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2023. – 84-bet.
14. Hamroyev G'. Ona tili ta'limida darsliklarning yangi avlodi: konseptual asoslar // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Toshkent, 2023. – №4. – 12-bet.